



CRIMINAL PROCEDURAL ASPECTS OF ASSESSING THE RELEVANCE AND RELIABILITY OF AN EXPERT OPINION IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Murodkasim Khamzayevich Eshnazarov

Independent researcher at the law

enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: m.eshnazarov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: criminal procedure, expert opinion, evaluation of evidence, relevance, reliability, admissibility, subject of proof, special knowledge, investigative practice, forensic examination.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article analyzes the issues of relevance and reliability as important criteria for evaluating an expert opinion as evidence in the process of investigating criminal cases from scientific-theoretical and practical perspectives. The article substantiates that the relevance of an expert opinion is reflected in its connection with the circumstances to be proved in a criminal case, while its reliability is manifested through the conformity of the information contained therein with objective reality, its scientific validity, and its consistency with other evidence. In addition, the article emphasizes the need to pay special attention to such factors as the expert's qualifications, the reliability of the research methodology applied, the sufficiency and quality of the submitted materials, and the internal logical consistency of the information presented in the opinion. The article also puts forward scientific and practical proposals aimed at improving the practice of evaluating expert opinions.

EKSPERT XULOSASIDAN FOYDALANISHDA UNING ISHGA ALOQADORLIGI VA ISHONCHLILIGINI BAHOLASHNING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHLARI

Murodqosim Xamzaevich Eshnazarov

O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

mustaqil izlanuvchisi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, ekspert xulosasi, dalillarni baholash, ishga aloqadorlik, ishonchlilik, maqbullik, isbotlash predmeti, maxsus bilimlar, tergov amaliyoti, sud ekspertizasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida ekspert xulosasini dalil sifatida baholashning muhim mezonlari — ishga aloqadorlik va ishonchlilik masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada ekspert xulosasining ishga aloqadorligi uning jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar bilan bog'liqligi, ishonchliligi esa undagi ma'lumotlarning ob'ektiv voqelikka muvofiqligi, ilmiy asoslanganligi va boshqa dalillar bilan uyg'unligi orqali namoyon bo'lishi asoslab berilgan. Shuningdek, ekspert xulosasini baholashda ekspertning malakasi, tadqiqot metodikasining ishonchliligi, taqdim etilgan materiallarning yetarliligi va sifatligi, xulosadagi ma'lumotlarning ichki mantiqiy izchilligi kabi omillarga alohida e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatilgan. Maqolada ekspert xulosasini baholash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ham ilgari surilgan.

УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОЦЕНКИ ОТНОСИМОСТИ И ДОСТОВЕРНОСТИ ЗАКЛЮЧЕНИЯ ЭКСПЕРТА ПРИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИИ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

Муродкосим Хамзаевич Эшназаров

Независимый исследователь правоохранительных

Академии Республики Узбекистан

E-mail: m.eshnazarov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: уголовный процесс, заключение эксперта, оценка доказательств, относимость, достоверность, допустимость, предмет доказывания, специальные знания, следственная практика, судебная экспертиза.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы вопросы относимости и достоверности как важнейших критериев оценки заключения эксперта в качестве доказательства в процессе расследования уголовных дел. В статье обосновано, что относимость заключения эксперта проявляется в его связи с обстоятельствами, подлежащими

доказыванию по уголовному делу, а достоверность — в соответствии содержащихся в нем сведений объективной действительности, их научной обоснованности и согласованности с другими доказательствами. Кроме того, отмечается необходимость уделять особое внимание таким факторам, как квалификация эксперта, надежность примененной методики исследования, достаточность и качество представленных материалов, а также внутренняя логическая последовательность сведений, изложенных в заключении. В статье также выдвинуты научно-практические предложения, направленные на совершенствование практики оценки заключения эксперта.

Kirish. Jinoyat ishlarini tergov qilishda haqiqatni aniqlash, shaxsning aybli yoki aybsizligini belgilash, sodir etilgan qilmishning huquqiy va faktik holatlarini to'g'ri baholash bevosita dalillar tizimining puxta va xolisona tahlil qilinishiga bog'liqdir. Jinoyat protsessida har qanday dalil, uning manbai yoki shaklidan qat'i nazar, oldindan belgilangan ustun kuchga ega emas. Shu bois dalillarni baholashda ularning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi mezonlariga asoslanish jinoyat-protsessual isbotlashning muhim kafolati hisoblanadi.

Jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda, xususan shaxsning jinoyat sodir etishda aybli-aybsizligini baholash yoxud ishning boshqa holatlari yuzasidan biror bir faktning haqiqatga mos kelishini aniqlash uchun barcha dalillar aynan bir xil mezonlar orqali baholanishi lozimligi belgilangan. Bu orqali, qonun chiqaruvchi biror bir dalilning boshqa dalillarga qaraganda oldindan belgilab qo'yilgan ustun mavqega ega emasligini, barcha dalillar baholanishidan oldin teng ekanligini, ularning jinoyat ishini hal qilish masalasidagi ahamiyatini faqatgina tegishli mezonlar asosida baholanganligidan keyingina belgilash mumkinligini belgilab qo'ygan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (keyingi o'rinlarda JPK) 95-moddasiga muvofiq, har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

O'z navbatida, qonun chiqaruvchi dalillarning ishga aloqadorligi tushunchasiga ta'rif bersada, dalillarning ishonchliligi deganda aynan nimani tushunish kerakligini aniq belgilab bermaydi. Quyida dalillarni baholashning mazkur ikki mezoniga ekspert xulosasini baholash nuqtai nazaridan batafsil to'xtalamiz.

Avvalo, amaldagi qonunchilikka ko'ra dalillarning ishga aloqadorligi deganda, ularning jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirishi tushuniladi.

Shuningdek, qonun chiqaruvchi dalillarning mazkur xususiyatga ega ekanligini surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha baholashlarini belgilaydi.

Bizningcha, mazkur norma qayta ko'rib chiqilishi lozim. Zero, dalillarga, xususan ekspert xulosasiga baho berish nafaqat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning, balki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining ham vazifasi va vakolati hisoblanadi. Jumladan, ekspertiza tergov harakatini o'tkazish jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin – tergovga qadar tekshiruv bosqichida ham amalga oshirish mumkinligi JPKning 329-moddasida aniq belgilab qo'yilgan.

Adabiyotlar tahlili. Umuman olganda, dalillarning ishga aloqadorligi bo'yicha yuqorida keltirilgan normani soha olimlarining qarashlari bilan qiyoslangan holda tahlil qiladigan bo'lsak, N.Gromov va S.Zaysevaning fikricha, dalillarning ishga aloqadorligi daliliy ma'lumotlar va isbotlanishi kerak bo'lgan holatlar o'rtasida zaruriy bog'lanish mavjudligi asosida baholanadi [1]. Shu bilan birga, mazkur olimlar bunday zaruriy bog'lanish aynan nimalarda aks etishi masalasiga aniq ta'rif berishmagan.

Ikkinchi guruh olimlar, xususan A.Davletov va Y.Orlovlarning fikricha esa, ekspert xulosasining ishga aloqadorligi ularning daliliy tarkibi orqali jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan holatlarni aniqlash vositasi bo'lib xizmat qila olish qobiliyatida aks etadi [2].

Boshqa yana bir guruh olimlar, shu jumladan L.Kokorev hamda N.Kuznesov tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra esa, dalillarning ishga aloqadorligi ularning ob'ektiv xususiyatida aks etadi. Mazkur olimlar dalillarning mazmuni va isbotlanadigan holatlar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini baholash lozimligi haqidagi fikrni ilgari surishadi [3].

Yuqorida keltirilgan qarashlarni umumlashtirgan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, dalillarning ishga aloqadorligini belgilashda dalillarning mazmuni va isbotlanadigan holatlar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligiga asoslanish to'g'riroq bo'ladi.

Shunga ko'ra, ishga aloqadorlik dalil tarkibining xususiyati bo'lib, dalil manbasiga unchalik ham bog'liq hisoblanmaydi. Shu sababli ham, dalillarni ishga aloqadorlik mezoni bo'yicha baholash deyarli barcha dalillar uchun bir xilda amalga oshiriladi.

Milliy olimlarimizdan B.Rajabov dalilning ishga aloqadorligi yuzasidan baholashda uning quyidagi xususiyatlarini inobatga olish lozimligini qayd etadi:

- a) ishga aloqador dalil – faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi haqiqiy ma‘lumotlarni aks ettiradi;
- b) ishga aloqador dalil – jinoyat ishiga taalluqli mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlaydi;
- v) ishga aloqador dalil – jinoyat ishiga taalluqli mavjud holatlar haqidagi xulosalarni rad etadi;
- g) isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatni tasdiqlash yoki rad etishga qodir bo‘lmagan dalil ishga aloqador bo‘lmagan dalil hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, B.Rajabov ishga aloqador dalil deganda, jinoyat ishiga taalluqli bo‘lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi yoxud rad etuvchi faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi haqiqiy ma‘lumotlarni aks ettirgan dalil tushuniladi, degan ta‘rifni ilgari suradi [4].

Mazkur masalada P.Lupinskaya tomonidan bildirilgan fikrga ko‘ra, dalilning ishga aloqadorligi yoki aloqador emasligi to‘g‘risidagi xulosa dalilning mazmunini qonunda ko‘rsatilgan, isbotlanishi kerak bo‘lgan holat bilan taqqoslash natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ishni hal qilish uchun zarur bo‘lgan holatlarni aniqlash ko‘pincha “oraliq faktlar” deb nomlangan boshqa holatlarni aniqlash orqali amalga oshirilganligi sababli, ushbu holatlarning ishga aloqadorligini baholashda vakolatli organlar va mansabdor shaxslar ushbu holatlarning ishdagi boshqa dalillar bilan muvofiqligi hamda ularga mos kelishi, ulardagi holatlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash uchun ahamiyatli ekanligi to‘g‘risida qaror qabul qilishni talab qiladi [4].

Bizningcha, P.Lupinskaya o‘zining yuqorida keltirilgan fikrida ekspert xulosasining o‘z xususiyatiga ko‘ra egri (bilvosita) dalillar sirasiga kirishiga urg‘u bermoqda.

Y.Orlovning fikricha, muayyan ekspert xulosasi ishga aloqador deb hisoblanishi uchun undagi ma‘lumotlar quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- jinoyat ishi bo‘yicha isbotlash predmetiga kiritilgan holatlar (ayblanuvchining ruhiy holati, jabrlanuvchining o‘limi sababi, uning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararining og‘irligi va boshqalar) to‘g‘risida bo‘lishi;
- bevosita isbotlash predmetiga kiritilgan bo‘lmasa-da, bilvosita isbotlashda foydalaniladigan yordamchi faktlar ko‘rinishidagi ma‘lumotlar (muayyan qon guruhining mos kelishi, o‘q otilgan qurol haqidagi ma‘lumotlar va boshqalar) to‘g‘risida bo‘lishi;
- boshqa faktik holatlar to‘g‘risida – ularning mavjudligi yoki mavjud emasligi, ishonchligi yoki ishonchsizligi, qabul qilinishi yoki qabul qilinishi mumkin emasligi (masalan, guvohning ruhiy holati, mutaxassisning qobiliyatsizligi to‘g‘risida) [5].

Fikrimizcha, yuqoridagicha yondashuv to'g'ri bo'lib, zero ekspert xulosasidagi ma'lumotlar mazkur jinoyat ishi doirasida o'rganilayotgan hodisa to'g'risida emas, balki isbot qilish predmetiga kirmaydigan boshqa holatlar to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan bo'lsa yoki undagi ma'lumotlar dalil sifatida ishlatilishi mumkin bo'lmasa, bunday ma'lumotlar jinoyat ishiga aloqador deb baholanishi mumkin emas.

Ekspert xulosasini ishga aloqadorlik nuqtai nazaridan baholash masalasida e'tiborga molik bo'lgan qarashlarni ilgari surgan G.Vershiskayaning ta'kidlashicha, dalillarning ishga aloqadorligini baholash ekspert xulosasini baholashning eng birinchi bosqichi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, sud ekspertizasini o'tkazishda ko'rib chiqilayotgan jinoiy ish bilan bog'liq bo'lmagan faktik holatlar aniqlanmasligi kerak, aks holda ekspert xulosasini keyingi baholash mantiqan to'g'ri bo'lmaydi [6].

Fikrimizcha, G.Vershiskayaning yuqorida keltirilgan fikri mutlaqo o'rinli hisoblanadi. Zero, ekspert xulosasidagi muayyan dalil ishga aloqador emas deb topilgan taqdirda uning boshqa mezonlarga mosligi, masalan uning maqbulligi yoki ishonchliligini baholash ish uchun butunlay ahamiyatsiz hisoblanadi. Sababi, bu kabi ma'lumotlar keyinchalik maqbul, ishonchli yoki ilmiy asoslantirilgan deb topilgan taqdirda ham shaxsning aybini isbot qilishda hech qanday rol o'ynamaydi.

Shu bilan birga, shuni ham aniqlashtirish kerakki, ekspert xulosasidagi muayyan ma'lumot (xulosa)ning ijobiy yoki salbiyligi mazkur ma'lumotning ishga aloqadorligini baholashda hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Masalan, tergovchi tomonidan ekspert oldiga qo'yilgan ma'lum bir barmoq izlari ayblanuvchiga tegishlimi degan savolga ekspert xulosasiga ko'ra "yo'q, ayblanuvchiga tegishli emas" degan javobning olinishi mazkur ma'lumotning ishga aloqador emas deb baholanishiga sabab bo'lishi mumkin emas. Sababi, bu kabi ma'lumotlar isbot qilish doirasidan chetga chiqmaydi.

Bundan tashqari, ekspert xulosasining yoki undagi muayyan ma'lumotlarning ishga aloqador emas deb baholanishiga har doim ham ekspertning xatosi sifatida qarash o'rinli bo'lmaydi. Zero, ekspertizani tayinlash vaqtida ishni yuritayotgan organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ishga aloqador bo'lmagan savollarning qo'yilishi yoxud ishga aloqador bo'lmagan ekspertiza ob'ektining taqdim etilishi kelgusida ekspert tomonidan beriladigan xulosaning ishga aloqador emas deb baholanishiga olib keladi.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, dalillarning ishga aloqadorligini baholash aniq shartlarga, xususan undagi ma'lumotlarning isbot qilish predmetiga kirish-kirmasligiga asoslanadi. Shu bilan birga, ekspert xulosasi dalil turlari ichida o'ziga xos va

murakkab xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli ham, uni ishga aloqadorligi mezonini bo'yicha baholash o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

Ekspert xulosasini ishonchliligi nuqtai nazaridan baholash masalasiga yuzlanadigan bo'lsak, amaldagi qonunchilikda har bir dalil ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, qonun chiqaruvchi dalilning ishonchliligi nimani anglatishini, ishonchli va ishonchsiz dalillar aynan qaysi xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanishini aniq belgilab bermaydi.

Bizningcha, qonunchilikdagi bunday bo'shliqning mavjudligiga soha olimlari tomonidan dalillarning ishonchliligi masalasida yagona umumiy tan olingan yondashuv mavjud emasligi sabab bo'lgan.

Mazkur masalaga oid olimlarning qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, M.Strogovich dalillarning ishonchliligi xususiyatini ularning haqiqatga mos kelishi bilan tenglashtirgan [7].

Shunga o'xshash ta'rifni D.Arsenev ham ilgari suradi. Uning fikricha, haqiqatga mos keladigan boshqa ma'lumotlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga ishonchli hisoblanadi [8].

Bizningcha, yuqoridagi ilmiy qarashlarni qo'llab-quvvatlagan holda shuni qo'shimcha qilish kerakki, ishonchlilik tushunchasi daliliy ma'lumotning haqiqiylikni (uning ob'ektiv haqiqatga muvofiqligini) va ushbu haqiqiylikning tegishli sub'ekt (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror yoki sud) tomonidan tan olinishini o'z ichiga oladi.

Milliy olimlarimizdan B.Rajabovning fikricha, dalilni ishonchliligi nuqtai nazaridan baholash deganda, tekshiruv natijasida jinoyat ishiga taalluqli mavjud holatlar haqidagi xulosalarning haqiqatga muvofiq ekanligi (ob'ektiv voqelikka mos kelishi)ni aniqlash, ularning shubhasizligini isbotlash tushuniladi [9].

Fikrimizcha, B.Rajabovning yuqoridagi fikrlari mutlaqo to'g'ri. Shu bilan birga, mazkur ta'rifdagi dalilning "shubhasizligi" masalasi nisbiy ahamiyatga ega, nazarimizda. Zero, muayyan daliliy ma'lumotning ishonchli deb baholanishi, uning mutlaqo shubhasizligini anglatmaydi. Shu sababdan ham, qonun chiqaruvchi jinoyat ishini yurituvchi sub'ektlarga ichki ishonchga tayanish vakolati berib qo'ygan. Ya'ni, vakolatli mansabdor shaxslar jinoyat ishi yuzasidan muayyan dalilning, xususan ekspertiza xulosasida keltirilgan muayyan xulosaning ishonchliligini baholashda ularga oz darajada shubha bo'lishiga qaramasdan ichki ishonchga tayanishlari hamda ularni ishonchli deb baholashlari mumkin.

Mazkur masalaga oid yana boshqa bir guruh olimlar, xususan V.Mironov, Y.Jdanova, A.Prokopenko hamda F.Chirkovlarning qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida dalilni ishonchliligi nuqtai nazaridan baholashning quyidagi xususiyatlari belgilab berilgan:

- dalillarning ishonchliligi o‘tkazilgan jinoyat-protsessual tekshirish bilan asoslantiriladi;
- dalillarning ishonchliligi dalillarning shubhasiz ekanligida namoyon bo‘ladi;
- dalillarni ishonchliligini baholash dalillar mazmunining ob‘ektiv voqelikka mos kelish darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, bu holat olingan ma‘lumotlarni jinoyat ishida mavjud bo‘lgan boshqa dalillar bilan solishtirish natijasida, shuningdek ularning manbalarini belgilash va aniqlash, ishonchlikni tasdiqlaydigan yoki rad etadigan boshqa dalillar va holatlarni qo‘lga kiritish yo‘li bilan aniqlanadi [10].

Olimlar tomonidan dalillarni baholashdagi ishonchlik va maqbullik mezonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha ko‘plab fikrlar bildirilgan. Xususan, Y.Grishinaning mazkur masalaga oid fikriga ko‘ra, dalillarning ishonchliligi ularning maqbulligi bilan chamcharchas bog‘liqdir [11].

B.Rajabov ham mazkur fikrni qo‘llab-quvvatlagan holda, dalillarning ishonchliligi va maqbulligi xususiyatlari bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lsihini, biroq ishonchlik va maqbullik – dalillarning mustaqil mazmunga ega va o‘zaro bir-birini singdirmaydigan xususiyatlari ekanligini ta’kidlaydi [12].

Y.Bondarning fikricha esa, dalillarning maqbulligi qoidalari sudlov ishi qatnashchilarining isbotlovchi axborotni olishdagi huquqlarini kafolatlashga xizmat qilishi va isbotlash predmetiga kiradigan holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ishonchliligini ta’minlashi va bu bilan ob‘ektiv haqiqatning aniqlanishiga yordam berishi lozim.

Dalillarning maqbulligi ularning ishonchliligini ta’minlaydi. Shu vaqtning o‘zida dalillarning maqbulligi to‘g‘risidagi qaror uning ishonchli ekanligi to‘g‘risidagi masalani hal qilmaydi, dalillarning maqbulligi to‘g‘risidagi xulosa ularning ishonchli ekanligidan ma‘lum bo‘ladi, biroq dalillarning ishonchli ekanligi to‘g‘risidagi xulosaning o‘rnini bosmaydi [13].

Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikrlar to‘g‘ri bo‘lib, zero ekspert xulosasining ishonchliligi uning maqbul bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi va bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ularning har biri ekspert xulosasini baholashda alohida mezon vazifasini bajaradi.

Bizningcha, ishonchli ekspert xulosasi ob‘ektiv voqelikka muvofiqlik va uning isbotlanishini (asoslantirishini) o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, ekspert xulosasining ishonchliligini baholash murakkab jarayon hisoblanadi. Sababi, mazkur jarayon ekspert xulosasining mazmunini chuqur o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

K.Pchelinsevaning fikricha, eksper xulosasini ishonchlik nuqtai nazaridan baholash amalda ikki usul yordamida amalga oshiriladi:

- ekspertning malakasini aniqlash;
- tadqiqot metodikasini o‘rganish.

Qoida tariqasida, amaliyotchilar tomonidan birinchi usul ko'proq qo'llaniladi, chunki u vaqtni tejaydi va ilmiy sohalarda maxsus bilimlarni talab qilmaydi. Ushbu usuldan foydalanib, tadqiqotning kirish qismidagi ma'lumotlarni (ekspertiza muassasasi, ekspert, tadqiqot ob'ekti to'g'risidagi ma'lumotlar) tekshirish kifoya.

Sud ekspertizalarining eng ko'p soni tegishli attestatsiya va tayyorgarlikka ega bo'lgan davlat ekspert muassasalarida ishlaydigan ekspertlar tomonidan o'tkazilganligi sababli, baholash shartli hisoblanadi. Ammo har qanday holatda ham ekspertning kompetensiyalarini aniqlash majburiy hisoblanadi.

Mazkur olimning ta'kidlashicha, ekspert xulosasining ishonchsizligiga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablar orasida quyidagilar mavjud:

- buzib ko'rsatilgan dastlabki ma'lumotlar yoki haqiqiy bo'lmagan ob'ektlar (namunalari);
- tadqiqot davomida qo'llanilgan yetarlicha ishonchli bo'lmagan metodika;
- ekspert tomonidan tasodifan yo'l qo'yilgan xatolar [14].

Muhokama va natijalar. Fikrimizcha, yuqorida keltirib o'tilgan fikrlari to'g'ri, biroq to'liq emas. Bizningcha, ekspert xulosasining ishonchliligini baholashda mazkur jarayonning quyidagi shartlarini (tarkibiy qismlarini) ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ekspertga taqdim etilgan materialning yetarliligi va sifatliiligi;
- ekspertning yetarli kompetensiyalarga ega ekanligi;
- ekspertga taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning to'g'riligi;
- ekspert tomonidan qo'llanilgan texnikaning ishonchliligi;
- ekspert tomonidan o'tkazilgan tadqiqotning to'liqligi;
- ekspert xulosasining asosiy qismi – xulosada keltirilgan ekspert xulosalarining asosliiligi;
- ekspert xulosasining ishdagi dalillar bilan mos kelishi va o'zaro nomuvofiqlik mavjud emasligi.

Xullas, ekspert xulosasining ishonchliligi shartlariga rioya qilish baholash sub'ektiga jinoyat ishi bo'yicha to'g'ri protsessual qaror qabul qilishga imkon beradi. Shuningdek, ekspert xulosasini baholash natijasida uning ishonchli emasligi aniqlangan taqdirda bunday noaniqliklarni bartaraf etishga qaratilgan navbatdagi choralar (masalan, qayta ekspertiza tayinlash) ko'rilishi lozim bo'ladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasida ekspert xulosasining ishga aloqadorligi va ishonchliligini baholash masalalari yuzasidan quyidagicha xulosalarni ilgari surishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. Ekspert xulosasidagi ma'lumotlar jinoyat ishi doirasida o'rganilayotgan hodisa to'g'risida emas, balki isbot qilish predmetiga kirmaydigan boshqa holatlar to'g'risidagi ma'lumotni o'z

ichiga olgan bo'lsa yoki undagi ma'lumotlar dalil sifatida ishlatilishi mumkin bo'lmasa, bunday ma'lumotlar jinoyat ishiga aloqador deb baholanishi mumkin emas.

2. Ekspert xulosasini baholashda, eng avvalo, uning ishga aloqadorligi baholanishi lozim. Zero, undagi xulosalar ishga aloqador emas deb topilgan taqdirda uning boshqa mezonlarga mosligi, masalan uning maqbulligi yoki ishonchliligini baholash ish uchun butunlay ahamiyatsiz hisoblanadi.

3. Ekspert xulosasining yoki undagi muayyan ma'lumotlarning ishga aloqador emas deb baholanishiga har doim ham ekspertning xatosi sifatida qarash o'rinli bo'lmaydi. Zero, ekspertizani tayinlash vaqtida ishni yuritayotgan organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ishga aloqador bo'lmagan savollarning qo'yilishi yoxud ishga aloqador bo'lmagan ekspertiza ob'ektining taqdim etilishi kelgusida ekspert tomonidan beriladigan xulosaning ishga aloqador emas deb baholanishiga olib keladi.

4. Ishonchlilik tushunchasi daliliy ma'lumotning haqiqiylikni (uning ob'ektiv haqiqatga muvofiqligini) va ushbu haqiqiylikning tegishli sub'ekt (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror yoki sud) tomonidan tan olinishini o'z ichiga oladi.

5. Ekspert xulosasining ishonchliligi uning maqbul bo'lishi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning har biri ekspert xulosasini baholashda alohida mezon vazifasini bajaradi.

6. Ishonchli ekspert xulosasi ob'ektiv voqelikka muvofiqlik va uning isbotlanishini (asoslantirilishini) o'z ichiga oladi.

7. Ekspert xulosasining ishonchliligini baholashda mazkur jarayonning quyidagi shartlarini (tarkibiy qismlarini) ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ekspertga taqdim etilgan materialning yetarliligi va sifatligi;
- ekspertning yetarli kompetensiyalarga ega ekanligi;
- ekspertga taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning to'g'riligi;
- ekspert tomonidan qo'llanilgan texnikaning ishonchliligi;
- ekspert tomonidan o'tkazilgan tadqiqotning to'liqligi;
- ekspert xulosasining asosiy qismi – xulosada keltirilgan ekspert xulosalarining asosligi;
- ekspert xulosasining ishdagi dalillar bilan mos kelishi va o'zaro nomuvofiqlik mavjud emasligi.

8. Ekspert xulosasining ishonchliligi shartlariga rioya qilish baholash sub'ektiga jinoyat ishi bo'yicha to'g'ri protsessual qaror qabul qilishga imkon beradi. Shuningdek, ekspert xulosasini baholash natijasida uning ishonchli emasligi aniqlangan taqdirda bunday noaniqliklarni bartaraf

etishga qaratilgan navbatdagi choralар (masalan, qayta ekspertiza tayinlash) ko'rilishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. См.: Громов Н.А., Зайцева С.А. Оценка доказательств в уголовном процессе. М., 2002. С. 64; Аверьянова Т.В., Статкус В.Ф. Эксперт. Руководство для экспертов органов внутренних дел. М.: Кно Рус, Право и закон, 2003. С. 331.
2. См.: Давлетов А.А Основы уголовно-процессуального познания. 2-е издание, исправленное и дополненное. Екатеринбург, 1997. С. 85; Орлов Ю.К. Основы теории доказательств в уголовном процессе. Научно-практическое пособие. М., 2000. С. 40; Российская Е.Р. Указ. соч. С. 273.
3. См.: Кокорев Л.Д., Кузнецов Н.П. Уголовный процесс: доказательства и доказывание. Воронеж, 1995. С. 121.
4. Rajabov B.A. Jinoiat protsessida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash: Monografiya – T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2019. – 90-b.
5. См.: Lupinskaya P. Доказательства и доказывание в новом уголовном процессе // Российская юстиция. 2002. № 7. С. 7.
6. См.: Орлов Ю.К. Проблемы теории доказательств в уголовном процессе. М.: Юристь,
7. С. 66-67.
8. Вершицкая Г.В. Критерии оценки заключения судебного эксперта // Вестник ПАГС. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kriterii-otsenki-zaklyucheniya-sudebnogo-eksperta> (дата обращения: 12.02.2024).
9. См.: Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса. Т. 1. С. 256.
10. См.: Арсеньев Д.В. Истина, достоверность и обоснованность в следствии и судебных актах. Вопросы теории судебной экспертизы.: Сб. научн. трудов ВНИИСЭ. М.: 1979 г., Вып. 39, С. 18.
11. Rajabov B.A. Jinoiat protsessida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash: Monografiya – T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2019. – 102-b.
12. Миронов В.Ю. Достоверность доказательств и их значение при постановлении приговора: Автореф. дис. ... на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – Челябинск, 2005. – С. 7–9; Жданова Я.В. Проблемы вероятного и достоверного в уголовно-процессуальном доказывании и их влияние на принятие отдельных процессуальных решений следователем: Автореф. дис. ... на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – Ижевск, 2004. – С. 6–10; Прокопенко А.А. Оценка доказательств в ходе

рассмотрения уголовного дела судом первой инстанции: Автореф. дис. ... на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – Краснодар, 2009. – С. 12.

13. Гришина Е.П. Достоверность доказательств и способы ее обеспечения в уголовном процессе: Автореф. дис. ... на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – М., 1996. – С. 9.

14. Rajabov B.A. Jinoyat protsessida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash: Monografiya – T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2019. – 102-b.

15. Бондар Е.В. Теоретические и прикладные аспекты признания доказательств недопустимыми: Автореф. дис. ... на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – Красноярск, 2008. – С. 8.

16. Пчелинцева К.С. Понятие и особенности оценки заключения и показаний эксперта // Вестник магистратуры. 2020. №2-5 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-osobennosti-otsenki-zaklyucheniya-i-pokazaniy-eksperta> (дата обращения: 11.02.2024).